
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASIDA HOKIM YORDAMCHILARINING FAOLIYATI VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALARIGA BAG‘ISHLANGAN ANJUMAN BO‘LIB O‘TDI

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va shu orqali kambag‘allikni qisqartirish maqsadida 2022-yil 1-yanvardan boshlab har bir mahallada “hokim yordamchisi” lavozimi joriy etildi.

Anjumanda hokim yordamchilarining faoliyati va istiqboldagi vazifalar muhokama etilib, joriy yil davomidagi faoliyati natijadorligiga baho berildi. To‘plangan tajribalar va tizimni takomillashtirish yuzasidan fikr almashildi.

Poytaxtimizda o‘tkazilgan anjumanda Toshloq tumanidagi O‘zbekiston MFY hokim yordamchisi Ziyoda Xalilova ham ishtirok etdi.

Ushbu anjumanda xalqaro ekspertlar, vazirliklar, idoralar, banklar, mahalliy hokimliklar, hokim yordamchilari va tadbirkorlar ishtirok etdilar,-deydi hokim yordamchisi Z.Xalilova.- Unda hokim yordamchilarining “mahallabay” ishlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va muammolar hamda “mahallabay” ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan kelgusidagi istiqbolli rejalar muhokama qilindi. Ikki kun bo‘lib o‘tgan anjumanda tajriba almashdim, aholi bandlikni ta‘minlash borasida kerakli tavsiyalar oldim.

2022-12-30 17:53:58